UO‘K: 811.512.133’42:81’373.612.2

INTERNET KOMMENTARIYLARIDA METAFORALARNING QO‘LLANILISHI

Ismoilova Odinaxon A’zamjon qizi,
Adu tayanch doktoranti
Ismoilovaodinaxon5@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20524158

Annotatsiya. *Mazkur maqolada internet kommentariylarida metaforalarning qo‘llanilishi, ularning lisoniy-pragmatik xususiyatlari hamda internet diskursidagi funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Virtual muloqotning zamonaviy shakli sifatida internet kommentariy nutqida metaforalar emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish, nutqiy tejamkorlikni ta’minlash va foydalanuvchilarning ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada metaforalarning internet kommunikatsiyasidagi o‘rni dunyo va o‘zbek tilshunosligi doirasidagi ilmiy qarashlar asosida tahlil etilib, YouTube kommentariylari misolida ularning pragmatik xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *internet diskursi, kommentariy nutqi, metafora, pragmatika, virtual muloqot, internet lingvistikasi, emotsional-ekspressivlik, lisoniy tejamkorlik, YouTube kommentariylari, diskurs tahlili.*

Аннотация. *В данной статье анализируется использование метафор в интернет-комментариях, их лингвопрагматические особенности и функциональная значимость в интернет-дискурсе. Освещается роль метафор как важного средства усиления эмоционально-экспрессивного воздействия, обеспечения речевой экономии и выражения социальных отношений пользователей в современном виртуальном общении. Также в статье рассматриваются научные подходы мировой и узбекской лингвистики к изучению метафор, а их прагматические особенности раскрываются на примере комментариев YouTube.*

Ключевые слова: *интернет-дискурс, комментарий, метафора, прагматика, виртуальное общение, интернет-лингвистика, эмоционально-экспрессивность, речевая экономия, комментарии YouTube, дискурс-анализ.*

Abstract. *This article analyzes the use of metaphors in internet comments, their linguo-pragmatic features, and their functional significance in internet discourse. The study highlights that metaphors in online communication serve as an important tool for enhancing emotional and expressive impact, ensuring linguistic economy, and expressing social relations among users. The article also examines scientific approaches to metaphor studies in world and Uzbek linguistics and reveals the pragmatic characteristics of metaphors through the analysis of YouTube comments.*

Keywords: *internet discourse, comment speech, metaphor, pragmatics, virtual communication, internet linguistics, emotional expressiveness, linguistic economy, YouTube comments, discourse analysis.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida virtual aloqa, xususan, internet kommentariy nutqi yangi shakllangan alohida bir muloqot turi sifatida o‘ziga xos lisoniy vositalari, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi hamda ijtimoiy xarakteriga ko‘ra jamiyatda yetakchi mavqega ega bo‘lib bormoqda. Bugungi umumjahon integratsiyalashuvi sharoitida internet tarmog‘ida cheksiz muloqot doirasi va "izohlar maydoni" shakllandiki, natijada kommentariylarning o‘ziga xos shakllanish uslubini, ulardagi lisoniy tejamkorlik (elliksis),

jargonlar, neologizmlar va punktuatsion o‘zgarishlarni tadqiq etishga yetarli asoslar yaratildi. Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda ilm-fan, ayniqsa, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini oshirish bo‘yicha qabul qilingan bir qancha qaror va farmonlar ushbu tilni bugungi kunning zamonaviy tadqiq usullari, jumladan, kompyuter lingvistikasi va internet-lingvistikasi asosida har tomonlama chuqur ilmiy o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Zero, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir [1]”.

Zamonaviy tilshunoslikdagi ana shunday lingvistik jarayonlardan biri metaforalarning internet muloqotida reallashuvi hodisasidir. Internet foydalanuvchilari o‘zlarining murakkab his-tuyg‘ulari, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va o‘zaro ijtimoiy munosabatlarini qisqa va ta’sirli yetkazish uchun ko‘pincha metaforalardan unumli foydalanadilar. Bu esa mazkur sohaning internet diskursida tilshunoslik va ijtimoiy psixologiya chorrahasidagi yangi yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganish muhimligini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Metaforalarni nafaqat lisoniy vosita, balki inson tafakkurining muhim mexanizmi sifatida G.Lakoff, M. Jonson[2], M. Black[3] kabi tadqiqotchilar o‘rgangan bo‘lsalar, pragmatik nuqtayi nazardan P. Grays[4], metaforalarning ijtimoiy tarmoqdagi roli yuzasidan K. Burgers[5] kabi olimlar chuqur tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, rus tilshunos olimlaridan Y. Shutova esa komentariylarning sentiment tahlilida metaforalarni avtomatik aniqlash va tahlil qilish orqali uning ijtimoiy tarmoqdagi ahamiyatini ochib bergan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu sohada samarali izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ana shunday tadqiqotlardan biri F. J. Yakubovning “Siyosiy diskursda metaforalarning ishlatilishiga doir mulohazalar” deb nomlanuvchi maqolasidir. Mazkur maqolada metaforik matnning o‘ziga xosliklari va uning siyosiy diskursdagi yashirin ma’nolarini tushunish masalalari ko‘rib chiqiladi. Metaforalar adresatning hissiyotiga ta’sir qilishning eng muhim vositasi maqomida ko‘riladi hamda uning siyosiy diskursdagi izomorf, somatik va qarindoshlik kabi turlarga tasniflanishiga doir ayrim mulohazalar bayon qilinadi.

Shu bilan birgalikda tabiat bilan bog‘liq metaforalar, makon va mo‘ljal metaforalari, emotiv metaforalar (insonning his-tuyg‘usi va tashqi muhit o‘rtasidagi bog‘lanishlar) va gastronomik metaforalar[6] kabi turlarga ham ajratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada kontent tahlili va leksik-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida YouTube platformasidagi real kommentariylar tanlab olindi. Tahlil jarayonida kommentariylarda qo‘llangan

metaforalarning ma’nosi, leksik-semantik xususiyatlari hamda internet diskursidagi qo‘llanishi o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Metaforalarning qo‘llanilishi internet kommentariylar matnida ham tez-tez uchraydi. Buning asosiy sababi, birinchidan, foydalanuvchilarning nutqiy tejamkorlikka intilishida bo‘lsa, ikkinchidan, metaforalar emotsionallik va ekspressivlikni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois internet kommentariylarida metaforalar turli pragmatik ma’nolarni ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

Fikrimizni yanada aniqroq ifodalash uchun real You tube kommentariylarni tahlilga tortsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, You tube platformasida Venesuela prezidenti Maduroning o‘g‘irlanishi haqidagi Kun.uz nashrining axborotiga javoban quyidagicha sharhlar qoldiriladi. Eng ajablanarlisi shuki, ketma-ket berilayotgan sharhlarda metafora qo‘llanilgan va youtube foydalanuvchisining vaziyatga nisbatan siyosiy qarashlarini ko‘rsatib bergan.

1-kommentariy: @guzelxamidjonova5708: Ички душман аралашмаса хеч қачон уғирлрлмайди[7].

Mazkur gapda *“ichki dushman”* metaforasi real voqelikdagi aniq dushmanni emas, balki muayyan davlat, kishilik jamiyati orasidagi ichki kuchlar yoki sotqin kimsalar talqin qilinmoqda. Yuzaga kelgan mazkur siyosiy tanazzulga o‘zaro birlashmaslik va yuzaga kelgan muammoni hamjihatlikda bartaraf qilmaslik asosis sabab bo‘lgani tasvirlanadi.

2- kommentariy: @ilhomturdiniyozov4014: Asr o'g'irligi uchun zur nomzod [8].

Ushbu *“asr o‘g‘irligi”* metaforik birikmasi asr, ya’ni yuz yilda bir marotagina sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan og‘rilik ma’nosini ifodalaydi. Xuddi shunga o‘xshash nominativlik xususiyati taniqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanida uchraydi. Yuqoridagi siyosiy vaziyatda ham *“asr o‘g‘riligi”* strukturaviy birligi kamdan-kam sodir bo‘luvchi va asrlar davomida muhokamalarga sabab bo‘luvchi nutqiy vaziyatga nisbatan qo‘llanilgan. Bu yondashuv esa keng auditoriya o‘rtasida ta’sirchanlik va obrazlilik yoyilishiga olib keladi.

3- kommentariy: @Usmon-h8k: Тахтга епишиб етадиган диктаторларга дарс булсин бу иш[9].

Keltirilgan gapda *yopishmoq* fe’li o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda foydalalnilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida yopishmoq fe’liga quyidagicha ta’rif beriladi:

YOPISHMOQ 1. Mahkam ushlamoq, tirmashib olmoq. Masalan: *Vasila Nazarovna zanjirni tushirishi bilan, notanish bir erkak otilib kirdi-yu, yoqasiga yopishdi* (O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol); *Yigitali “Aya, dadamni qutqaring, cho‘kib ketyapti!” deb baqirarmish. O‘zi otasining sochiga mahkam yopishib olibdi* (S.Siyoyev, Otliq ayol). *Kuyov tomonidan oriq, daroz, chayir bir xotin bel bog‘ladi. O‘zgalar: yosh-*

*qari – hammasi shu ikki ayolning belbo‘g‘iga, etaklariga yopishdi (*Oybek, Tanlangan asarlar);

2. Birikib, tutashib ketmoq, jipslashmoq, qapishmoq. Masalan: *Do‘ppi kalning boshiga shirachlagandek yopishib qolgan edi* (T.Obidov, Yusufjon qiziq); *Shaftoli gullari duv uchib, bir qancha gul yaproqlari Charosning ho‘l sochlariga, yuziga yopishib qoldi* (O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol);

Bundan tashqari lug‘atda bu fe’lning *ilashmoq, otilmoq, intilmoq, talpinmoq. astoydil berilmoq, jon-jahd bilan kirishmoq* [10] kabi ma’nolari ham keltirilgan bo‘lib, uning turlicha pragmatik maqsadda foydalanish imkoniyati mavjud ekanini bildiradi.

Yuqoridagi kommunikativ vaziyatdagi jumla esa *“yopishmoq”* fe’li jamiyat ravnaqi yo‘lida zarur islohotlarni bajarish o‘rniga mansab, unvon masalalariga mukkasidan ketib qolgan insonlarga saboq bo‘lsin deb yozilgan va retsipiyentga bevosita emas, balki bilvosita murojaat qilingan. Metaforaning pragmatik ma’no qatlami esa emotsional ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilishdan iborat.

4-kommentariy: @MuzaffarErbutayev: To'ppa - to'g'ri fikr. *Quruq odamlar*ni pulini shilgandan ko'ra iste'mol imkoniyatlarini ko'tarsa, iqtisodiyot rivojlanadi. Pul aylanishi tezlashgani sayin iqtisodiyot rivojlanadi[11].

Internet kommentariylarida metaforalar nafaqat so‘zlar vositasida, balki vizual elementlar (emoji, giflar, emotikonlar) orqali ham ifodalanishi mumkin. Mana shu jihati internet muloqotidagi metaforalarning oddiy nutqdan o‘ziga xosliklari bilan ajralib turishini ta’minlaydi. Masalan:

5- kommentariy: Shunchaki bomba 💣💣💣 [12].

Bomba emojisi, ya’ni yonayotgan qora to‘p sifatida tasvirlangan multfilm bombasi [13] odatda turli xil metaforik "bombalar" yoki "portlashlar" ga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Ba’zan urush, qurol yoki zo'ravonlik kontekstida ishlatiladi. Yuqoridagi kommentariyda ham bu emoji kontentda ifodalangan mazmunning “yondiruvchi” xarakterda ekanini bilan izohlab kelgan.

Xulosa. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, internet kommentariylarida metaforalar muhim kommunikativ vosita sanaladi. Ular nafaqat nutqni bezash, balki foydalanuvchhining emotsiyasini ifodalash, baho berish va yashirin ma’nolarni yetkazishda faol ishtirok etadi. Shuningdek metaforalar internet diskursining dinamiklik va kreativlik xususiyatlarini o‘zida namoyon etadi. Umuman olganda, internet kommentariylaridagi metaforalar – zamonaviy til rivojining ko‘zgusi va foydalanuvchilarning kollektiv ongini o‘rganish uchun eng qulay material ekanligini alohida e’tirof etish zarur. Shu bois, internet tilini o‘rganishda metaforalarning rolini alohida tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон фармони. Манба: http://lex.uz/docs/4561730 (Murojaat sanasi: 18.04.26).
2. George Lakoff., Mark Johnson. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 276 p.
3. Models and Metaphors: Studies in Language and Philosophy. – Ithaca: Cornell University Press, 1962.
4. Paul Grice Logic and Conversation // Syntax and Semantics. – Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
5. Christian Burgers., van Mulken M., Schellens P. The Use of Metaphor in Communication: Effects and Functions // Journal of Communication. – 2012.
6. **Yakubov F. J.** Siyosiy diskursda metaforalarning ishlatilishiga doir mulohazalar // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2023. – Vol. 4, No. 2. – P. 327–331.
7. https://youtube.com/watch?v=3Ft1XkN10Bk&lc=UgxfuwqR32JBbicPCbt4AaABAg&si=zNNh2hkHeLf9qt6u. Murojaat sanasi: 07.01.2026.
8. https://youtube.com/watch?v=3Ft1XkN10Bk&lc=Ugx0S7hwTKVkhchpaWt4AaABAg&si=M9Wa2qB4OiE1SGJP. Murojaat sanasi: 07.01.2026.
9. https://youtube.com/watch?v=3Ft1XkN10Bk&lc=Ugx-rsQI22phJx3p2cN4AaABAg&si=Xpi5WaRK0IKR9JtV. Murojaat sanasi: 07.01.2026.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 223–224.
11. https://youtube.com/watch?v=rU-hJ79hx9A&lc=UgywGaPNy7NyDaLWoBd4AaABAg&si=I5X4u9d0EuxGxIdw. Murojaat sanasi: 06.01.2026.
12. https://youtube.com/watch?v=oiwM5fbL_GA&lc=Ugx2EnfTCvnBCue1LrN4AaABAg&si=3guK3a-Ob8Cmiu2O. Murojaat sanasi: 23.06.2025.
13. https://yemojipedia.org/bomb.